

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.H.Бобожонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashov

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrlashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlarning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari..... 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarining inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

TARIH**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



UO‘K: 372.881.1

**MAKTABGACHA TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'RGANISH UCHUN GEYMIFIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: SAMARADORLIK VA NATIJALAR TAHLILI****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕЙМИФИКАЦИИ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ
И РЕЗУЛЬТАТОВ****USING GAMIFICATION TECHNOLOGIES FOR ENGLISH LEARNING IN PRESCHOOL
EDUCATION: ANALYSIS OF EFFECTIVENESS AND RESULTS****Madaminova Nargizaxon Jaxongir qizi** 

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Geymifikatsiya yosh bolalarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish, ularning bilimini mustahkamlash va chet tilni o'rganish jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi. Maqolada O'zbekistondagi va xalqaro tajribalar hamda tadqiqotlar natijalari o'rganilgan. Xulosa sifatida, geymifikatsiya ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita ekanligi ta'kidlangan.

Аннотация

В данной статье анализируется эффективность использования технологий геймификации при изучении английского языка в дошкольном образовании. Геймификация позволяет повысить интерес детей раннего возраста к учебному процессу, укрепить их знания и эффективно организовать процесс изучения иностранного языка. В статье рассматриваются результаты узбекского и международного опыта и исследований. В заключение было отмечено, что геймификация является важным инструментом повышения качества образования.

Abstract

This article analyzes the effectiveness of using gamification technologies for learning English in preschool education. Gamification enhances children's interest in the educational process, strengthens their knowledge, and effectively organizes foreign language acquisition. The article examines experiences and research findings from Uzbekistan and abroad. In conclusion, gamification is highlighted as a crucial tool for improving the quality of education.

Kalit so'zlar: geymifikatsiya, maktabgacha ta'lim, ingliz tili, ta'lim texnologiyalari, samaradorlik tahlili.**Ключевые слова:** геймификация, дошкольное образование, английский язык, образовательные технологии, анализ успеваемости.**Key words:** gamification, preschool education, English language, educational technologies, effectiveness analysis.**KIRISH**

Bugungi globallashtirilgan jamiyatda xorijiy tillarni o'rganish nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'rgatishga bo'lgan qiziqishning ortishi bolalarning jahon miqyosida raqobatbardosh shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash maqsadida muhim hisoblanadi. Ingliz tilini o'rganish bu jarayonda alohida o'rin tutadi, chunki u xalqaro muloqot va ilmiy-fanning asosiy tili hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim bosqichida til o'rganish jarayoni bolalarning til qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularning ijtimoiy, kognitiv va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini o'qitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu yo'nalishda 2019 yil 8 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli qarori asosida tasdiqlangan "2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimida sifatli ta'limni ta'minlash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan

samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Ushbu jarayonda ta'lim jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali qilish uchun interaktiv (o'yin) metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularning qiziqishi, ijtimoiy muloqotga tayyorligi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, konsepsiyada ta'kidlanganidek, ingliz tilini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish bolalarning til o'rganish qobiliyatini oshirish, ularning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantirishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish jarayonida interaktiv va ilg'or pedagogik texnologiyalarning roli hamda samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tadbiiq qilish orqali erishiladigan natijalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu ta'lim jarayonining sifatini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratishga hissa qo'shadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogikada interaktiv texnologiyalardan foydalanish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish ko'plab tadqiqotlarda ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Shu munosabat bilan, ta'limdagi **geymifikatsiya texnologiyalari** bu sohadagi muhim tadqiqotlardan biri bo'lib, uning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanilishi ta'lim jarayonining yangi yo'nalishlari sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Geymifikatsiya ta'lim jarayonida o'yin mexanikasi va elementlarini joriy etishni nazarda tutadi, bu esa o'quvchilarning faolligini va qiziqishini oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv o'quv jarayonini bolalar uchun ham qiziqarli, ham foydali qilib, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida geymifikatsiyaning maqsadi bolalarni faol jalb qilish orqali ularning bilim olish jarayonini soddalashtirish va natijadorligini oshirishdir. Geymifikatsiya nazariyasiga muvofiq, o'quv jarayonida qo'llaniladigan asosiy tamoyillardan biri bolalarning qiziqishini uyg'otishdan iborat. Bu jarayonni amalga oshirishda o'yinli topshiriqlar, bosqichli vazifalar, missiyalar va mukofot tizimlari kabi elementlar keng foydalaniladi. Bolalarning o'quv materiallariga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish uchun o'yin elementlari joriy etiladi, bu esa ta'lim jarayonining interaktiv va jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Yosh bolalarda motivatsiyani shakllantirishda esa reytinglar, ochkolar va virtual mukofotlar muhim ahamiyatga ega. Bu kabi elementlar bolalardagi rag'bat va natijaga erishish istagini kuchaytirib, ularning ijobiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, bolalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishga yordam beradi, bu esa ularning o'zaro hamkorligi va o'quv jarayonidagi faolligini oshiradi.

Geymifikatsiyaning asosiy afzalliklaridan biri interaktiv yondashuv orqali ta'limni tashkil qilishdir. Ushbu yondashuvda bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar. Masalan, o'yinli simulyatsiyalar, interaktiv savol-javoblar va virtual muhitdagi ta'limiy faoliyatlar bolalarning bilimlarni yanada samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Interaktiv ta'lim jarayoni ularning diqqatini yuqori darajada saqlab qolishga imkon beradi va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, geymifikatsiya texnologiyalari bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruh bo'lib vazifalarni bajarish, birgalikda ishlash va o'zaro hamkorlik qilish jarayonida bolalar ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradilar. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida o'yinli format yangi so'zlar va iboralarni o'zlashtirishni yengillashtiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, geymifikatsiya texnologiyalari bolalarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ular yangi bilimlarni qiziqish bilan o'zlashtirib, murakkab topshiriqlarni bajarishda faol ishtirok etadilar. Bunday yondashuv bolalarning intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Geymifikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Ushbu texnologiyalar bolalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, ijodkorlikni oshirish va ularning bilim olish samaradorligini kuchaytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ular ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishini ta'minlaydigan muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Kapustina L. V. va Cherpakova N.A. ta'kidlashicha, «ta'lim jarayonida geymifikatsiya metodlarining qo'llanilishi o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ularning ta'limdagi faolligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bugungi raqamli texnologiyalar imkoniyatlari geymifikatsiya elementlarini qo'llashni yengillashtiradi. Mazkur metodlar orasida interaktiv yondashuvlar, rolevoy o'yinlar, virtual mukofotlar va musobaqalar muhim o'rin tutadi. Classcraft, DuoLingo, Lingualeo, va MinecraftEdu kabi raqamli

platformalar bu yondashuvlarni samarali qo'llash imkonini beradi» T.N. Petuxova o'z maqolasida ta'kidlaganidek, "Geymifikatsiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu metod o'yin elementlarini noo'yin kontekstda qo'llash orqali bilim olish jarayonini jozibador va samarali qiladi" G.I.Valeev o'z maqolasida ta'kidlaganidek, geymifikatsiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Muallif geymifikatsiyaning afzalliklarini ta'kidlab, uning o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, u geymifikatsiyaning ba'zi kamchiliklarini ham qayd etadi, jumladan, uzoq muddatli istiqbolda uning samaradorligi pasayishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu muammoni hal qilish uchun muallif narrativ yondashuvni taklif qiladi, bu esa o'quvchilarning ichki motivatsiyasini rag'batlantirish va yuqori akademik standartlarga muvofiqlikni saqlashga yordam beradi. N.V.Bistrova va hammualliflarining maqolasida ta'kidlaganidek, geymifikatsiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mualliflar ta'kidlashicha, geymifikatsiya o'quv jarayonini interaktiv va dinamik shaklga aylantirib, o'quvchilarning axborot texnologiyalari sohasidagi ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularning mustaqil va jamoaviy ishlash mahoratini oshiradi. Shuningdek, maqolada geymifikatsiyaning ma'lum kamchiliklari ham qayd etilgan, jumladan, texnologiyalarga teng imkoniyatlarning mavjud emasligi ta'lim sifatidagi tengsizlikka olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan. Mualliflar bu muammolarni hal qilish uchun aniq strategiya va yondashuvlarni taklif qilganlar.

O'zbekistondagi va xalqaro tajriba misollariga qaraganda, erta yoshdan xorijiy tillarni o'rganish o'quvchilarning faolligini oshirishga, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga va tilga bo'lgan qiziqishini yo'naltirishga katta ta'sir ko'rsatadi. *O'zbekistonda* maktabgacha ta'limda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor oxirgi yillarda oshgan. Respublikadagi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tili, rus tili va boshqa tillarni o'rganish uchun maxsus kurslar tashkil etilgan. Davlat tomonidan tashkil etilgan loyihalar va ishlanmalar maktabgacha yoshdagi bolalarni xorijiy tillarga qiziqitirish va ularni tizimli ravishda o'rganishga o'rgatishni maqsad qilgan. Oliy ta'lim muassasalarining ba'zi bir tadqiqotlarida erta yoshdan til o'rganishning kognitiv va emotsional rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotlarda, xorijiy tillarni o'rganish, bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatdi. Shuningdek, bu tarbiya jarayonida o'qituvchilarning kasbiy malakalari va pedagogik yangiliklarga muhtojligi ham aniqlandi. *Xalqaro tajribada*, xorijiy tillarni maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatish keng tarqalgan. Yevropa mamlakatlarida, xususan, Germaniya, Shvetsiya va Niderlandiyada, bolalarga boshidan tartib bilan, o'yin va muloqot orqali, har xil tillardagi asosiy izohlar va iboralar o'rgatilmoqda. Mazkur usulning samaradorligi xalqaro tadqiqotlarda katta e'tirofga sazovor bo'lgan. Tadqiqotlarga ko'ra, bolalar rangu-barg va vizual materiallardan foydalangan holda, yangi tilni o'zlashtirishda yuqori samaradorlikka erishgan.

Shuningdek, Finlyandiyada 3 yoshdan boshlab, bolalarga ishonchli va tushunarli tarzda tilni o'rgatishga e'tibor qaratilgan. Bu yerda shaxsiy va jamoaviy o'yinlar orqali tilni o'rganish mexanizmining samaradorligi aniqlandi. Tadqiqotlarda, bolalarning tilga qiziqishlari ortib, ularning ijodiy faoliyati va psixologik salomatligida yaxshilashuvlar kuzatilgan. Mavjud tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, maktabgacha ta'limda xorijiy tillarni o'rganishning samaradorligi, asosan pedagogik metodlar va o'qituvchilarning malakasiga bog'liq. Xorijiy tillarni o'rganishda erta yoshdan bolalarni interaktiv, muloqotga yo'naltirilgan va o'yin usullari orqali qiziqitirish samarali natijalarga olib keladi. Tadqiqotlar, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish bolalarning ijodiy, kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish jarayonida geymifikatsiya texnologiyalarini qo'llashning samaradorligi turli nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida o'z tasdig'ini topmoqda. Geymifikatsiyaning bolalar o'rtasida motivatsiyani shakllantirish va ularning bilim o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim vosita ekanligi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Masalan, bolalarning qiziqishi va rag'batini oshirish uchun qo'llanilgan o'yin elementlari, missiyalar va mukofot tizimlari ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalarini qo'llash bolalarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishda, kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, geymifikatsiya metodlari ta'lim jarayonini bolalar uchun yanada jozibador va interaktiv qilib, o'rganish natijalarini yaxshilashga imkon beradi. Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Geymifikatsiyaning samaradorligini uzoq muddatli tahlil qilish:** Bolalarning vaqt o'tishi bilan qiziqishi pasaymasligini ta'minlash uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish.
2. **Texnologik tengsizlikni kamaytirish:** Ushbu usullarni barcha bolalarga bir xil darajada taqdim etish uchun infrastruktura va resurslarni yaxshilash.
3. **Malaka oshirish kurslari:** Pedagoglar uchun zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va geymifikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llash bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish.
4. **Xorijiy va mahalliy tajribalarni integratsiyalash:** O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanishni yanada rivojlantirish.

Geymifikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi, uzoq muddatli istiqbolda, O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimini yanada zamonaviy va raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Bolalarning ingliz tilini o'rganish jarayonida interaktiv va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali ularning jahon standartiga mos bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi ta'minlanadi.

XULOSA

Xalqaro va mahalliy tajribalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarda ijobiy motivatsiyani uyg'otish uchun o'yinli jarayonlar, masalan, interaktiv viktorinalar, rolevoy o'yinlar va boshqalar samarali qo'llanilishi mumkin. Bunday yondashuvlar nafaqat kognitiv qobiliyatlarni, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, geymifikatsiyaning amaliyotdagi qo'llanilishi bir qator muammolar bilan ham bog'liq. Birinchidan, texnologiyalarga teng kirish imkoniyati mavjud emasligi bolalar o'rtasida tengsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, geymifikatsiya usullarining uzoq muddatli samaradorligini saqlab qolish uchun yangicha va innovatsion yondashuvlar talab qilinadi. Masalan, bolalarning qiziqishini uzoq muddat saqlab turish uchun narrativ asoslangan o'yinlar joriy qilinishi muhim. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun pedagoglar va maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari qo'shimcha ta'lim kurslari orqali o'z malakasini oshirishlari zarur. Amaliy tadqiqotlardan ko'rinadiki, geymifikatsiya texnologiyalari bilan boyitilgan ta'lim jarayoni bolalarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Masalan, o'quv jarayoniga zamonaviy platforma va ilovalarni (Classcraft, DuoLingo, Lingualeo va boshqalar) qo'llash bolalarning faolligini oshirgan holda, ularning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Быстрова Н.В., Бакулина Н.А., Гнездин А.В., ва Угарова А.В. (2022). "Геймификация в современном образовательном процессе". Журнал прикладных исследований, №6, С. 416-425. <https://cyberleninka.ru/article/n/geymifikatsiya-v-sovremennom-obrazovatelnom-protsesse/viewer>
2. Валеев Г.И. Роль геймификации в цифровой трансформации образования: опыт и перспективы // Научный алманах. (2024) №4. <https://na-journal.ru/4-2024-pedagogika/11021-rol-gejmifikacii-v-cifrovoj-transformacii-obrazovaniya-opyt-i-perspektivy>
3. Капустина, Л. В. Методы геймификации в образовании / Л. В. Капустина, Н. А. Черпакова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. (2023) — № 47 (494). — С. 162-165. — УРЛ: <https://moluch.ru/archive/494/108062/>
4. Макаенко Я.А. Геймификация и нарративные практики в современном образовании // Коинон. (2022) Т. 3, №3—4. — С. 88 https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/121373/1/k_3-4_2022_07.pdf
5. Петухова Т.Н. Геймификация в образовании: современные тенденции // Сборник научных трудов. (2023) С. 67-74. https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/43085/1/978-5-6048526-8-2_2023_013.pdf